

Boboqulova Oydin

Ilmiy rahbar: Termiz Davlat universiteti o`qituvchisi

Muallif: Termiz Davlat universiteti talabasi

Abduraimova Dinora

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda chet tillarini o`rganishga qaratilayotgan katta ahamiyatlar hamda ularni o`rganish uchun zarur bo`lgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida so`z olib borilgan.*

Kalit so`zlar: *Chet tili, usullar, innovatsion, texnologiya, mamlakatlar, texnologik metodlar.*

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, mamlakatimizda kattadan katta o`zgarishlar ro`y berdi. Shu jumladan, chet tillarini o`rgatishga qiziqish oshdi va biz yoshlar uchun ko`plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rgatishga ham yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham bejizga emas, albatta. Jahon hamjamiyati o`ziga munosib o`rin egallahsga harakat qilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik hamkorlarimiz bilan birqalikda, hamkorlikda o`zining buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning ham hojati yo`qdir”. Ushbu fikrlarimizning davomi sifatida 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “ Chet tillarini o`rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Prezident Qarori xorijiy tillarini o`rganish va o`rgatish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Hozirgi kunda, chet tilini o`rganishga bo`lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fanining asosiy to`rtta aspektga ya`ni (o`qish, yozish, tinglash va gapishtirish) ga bo`linib, ularning har biri bo`yicha alohida tushuncha va ko`nikmalar berilmoqda. Chet tillarini o`rganishda esa beixtiyor zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o`rni beqiyosdir. Ta`lim texnologiyalari, bu ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta`lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta`lim sifati va samaradorligini oshirilishi nazarda tutiladi.

Misol uchun, texnologik vositalardan foydalanish chet tili o`rgnishning har bir aspektida ya`ni (o`qish, yozish, tinglash va gapishtirish)da juda ham qo`l keladi. Masalan , tinglash uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirib bo`lmaydi. Tinglab tushunish esa chet tili o`rganishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki, o`quvchi bir paytning o`zida so`zlovchining talaffuzi, so`z boyligi va unig grammatik qoidalarga rioya qilganligi, shu bilan birqalikda har bir so`zning ma`nolariga e`tibor berishi talab qilinadi.

Bu kabi jarayonlarda jumladan :

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- kompyuterlardan foydalanganda o`quvchi chet tilidagi videoroliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kino yoki multfilmlarni ham ko`rishi ham eshitishi mumkin;
- CD playerlardan foydalanish mumkin;
- ancha an`anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kossetalardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda har bir dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan qanchalik ko`p foydalanilsa interfaol o`yinlardan foydalanish kundan kunga an`anaga aylanib bormoqda. Hammamiz yaxshi bilamizki, hozirgi kunda ta`lim jarayonida har bir o`quvchi sub`ekt hisoblanadi. Bunda ko`proq interfaol metodlarga ham e`tabor qaratish lozimligi, ta`lim samaradorligini oshiradi. Har bir ingliz tili darsiga qo`yilgan eng muhim talablardan biri o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o`qituvchilari Amerika Qo`shma Shtatlari, Angkiya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan keng foydalanib kelishmoqda:

- “Muammoli vaziyat yechimi”(Creative Problem Solving)
- “Quvnoq topishmoqlar”(Merry Riddles)
- “Tezkor javob”(Quick answers)
- “Chigil yozdi” (Warm-up exercises)
- “Pantomina ” (Pantomime)
- “Hikoya zanjiri” (a chain story)
- “Roli o`yinlar” (Acting characters)
- “Allomalr yig`ini” (Thinkers meeting)
- “Rasmlar so`zlaganda” (Whev pictures speak)
- “Kviz kartochkalari” (quiz cards)

Yuqorida ko`rinib turunganidek, har bir innovatsion texnologiya o`ziga xos afzallik jihatlariga ega. Xulosa qilib aytadigan bo`sak, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo`llash natijasida o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi rivojlanadi, tez va to`g`ri javob berish malakasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

- 1.N.Q Xatamova, M.N Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo`llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo`llanma), Navoiy, 2006,40 bet
- 2.Bekmurodova U.B “ Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent- 2012 yil
- 3.O`.Hoshimov, I.Yoqubov. “Ingliz tili o`qitish metodikasi” (o`quv qo`llanma)Toshkent: “Sharq nashriyoti, 2003 yil”

KATTA URADARYO HAVZASINING LANDSHATLARGA TASIRI

Sapayeva Xosiyat